

XITOIY VA O'ZBEK TILI QON QARINDOSHLIK TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Nurullayeva Kumushbibbi Qudrat qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15854434>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xitoy va o'zbek tillarida mavjud qon-qarindoshlik terminlarining etimologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ikkala tilga xos bo'lgan terminlarning shakllanish jarayoni, tarixiy ildizlari va semantik rivojlanishi qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Maqolada qon-qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi asosiy terminlar taqqoslab, ularning kelib chiqishiga ta'sir etgan ijtimoiy, madaniy va lingvistik omillar yoritilgan. Tadqiqot natijalari xitoy va o'zbek tillari o'rtasidagi madaniy yaqinlik va semantik o'xshashliklarni aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: qon-qarindoshlik terminlari, etimologiya, xitoy tili, o'zbek tili, semantik tahlil, qiyosiy lingvistik, madaniyat, tilshunoslik.

Kirish. Til – bu xalqning tarixi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarining aksidir. Har bir xalq o'z tili orqali oilaviy va qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi boy leksik tizimga ega. Xitoy va o'zbek tillarida qon-qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlar juda boy va murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu terminlarning shakllanishi va rivojlanishi ushbu tillarda yashagan xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilmasi bilan bevosita bog'liq[3].

Mazkur maqolada xitoy va o'zbek tillaridagi qon-qarindoshlik atamalarining etimologik jihatdan kelib chiqishi, ularning semantik tarkibi hamda madaniy asoslari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharxi. Qon-qarindoshlik terminologiyasi tilshunoslikda doimiy tadqiq etib kelinayotgan yo'nalishlardan biridir. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda M. Qodirova, A. Madvaliyev, X. To'raxo'jayevlarning o'zbek tiliga oid izlanishlari muhim o'rin tutadi. Xitoy tilshunosligida esa "Hanyu qinqi guanxi cidian" (汉语亲戚关系词典) kabi lug'atlar va Liu Xai, Chjan Min kabi olimlarning tadqiqotlari qon-qarindoshlik terminlarining madaniy va tarixiy ildizlarini yoritishga xizmat qilgan. Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikka oid manbalar, jumladan, N. Yu. Shvedova va V. M. Solntsev kabi olimlarning ishlari til o'rtasidagi strukturaviy farq va o'xshashliklarni ko'rsatishda asos bo'lib xizmat qiladi[1].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qon-qarindoshlik terminlari nafaqat tilshunoslik, balki antropologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan ham uzviy bog'liq.

Muhokama va natijalar. Xitoy va o'zbek tillaridagi qon-qarindoshlik terminlarining etimologiyasini chog'ishtirish orqali biz ikki til o'rtasidagi tarixiy aloqalar va til munosabatlari haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Bu bizga ushbu tillarning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganligini va bir-biridan farq qilganini tushunishga imkon beradi [6]. Xitoy va o'zbek tillaridagi qon-qarindoshlik terminlarini tahlil qilish ushbu jamiyatlarning madaniy va tarixiy sharoitlariga bir darcha beradi. Bu bizga ijtimoiy tuzilmalarni, oila tizimlarini va ushbu terminlarda o'rnatilgan qadriyatlarni tushunishga yordam beradi. Etimologiyani chog'ishtirish orqali biz ushbu jamiyatlarning oilaviy munosabatlarni qanday kontseptsionalash va ifodalashidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashimiz mumkin. Xitoy va o'zbek tillari o'rtasidagi har qanday lingvistik qarz yoki ta'sirni aniqlash imkonini beradi[1]. Bu bizga ushbu tillar o'rtasidagi tarixiy aloqa va madaniy almashinuvni, shuningdek, qo'shni yoki nufuzli tillarning umumiy til

ta'sirini tushunishga yordam beradi. Etimologik tahlil tillarning rivojlanishi va evolyutsiyasini kuzatishga yordam beradi. Qon qarindoshlik terminlarini chog'ishtirish orqali biz fonetik va semantik o'zgarishlar, so'z birikmalari yoki umumiy til ildizlarini aniqlashimiz mumkin. Ushbu tahlil ushbu tillarning lug'at tarkibi va tuzilishini shakllantirgan tarixiy jarayonlar haqida tushuncha beradi.

Umuman olganda, xitoy va o'zbek qon qarindoshlik terminlarining etimologik jihatdan chog'ishtirish bu tillar, ularning madaniy sharoitlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi tushunchamizni chuqurlashtiradi. Bu bizga tillar o'rtasidagi aloqa va ta'sirlarni ochishga imkon beradi va til evolyutsiyasi va til xilma-xilligi haqidagi bilimimizga hissa qo'shadi.

O'zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik qatlamlarga ajratib o'rganish uning asl genetik manbalarini aniqlash, o'zbek tili o'tmishda qanday qardosh, shuningdek qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqada bo'lganini, bu tilda qaysi tillarning ta'siri mavjudligini aniqlashga yordam beradi. E.Begmatov o'zbek tili leksikasining lug'aviy qatlamlarini nazariy aspektida chuqur tahlil qilib, «Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari» nomli tadqiqotini yaratdi. Ushbu asarda birinchi bor o'zbek tilining o'z qatlam leksikasi, uning tarixiy ildizlari atroflicha o'rganilgan¹.

Bu o'rinda o'zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo'lgan qon- qarindoshlik terminlarining leksik tipologiyasi haqida so'z yuritilishining sababi shundaki, birinchidan, ushbu soha tilning muhim leksik birliklari sanaladi, ikkinchidan, ular barcha va hatto, turkiy bo'lmagan tillar uchun ham keng iste'molda bo'lgan so'zlar yig'indisini tashkil etadi, uchinchidan, mazkur terminlar kelib chiqish tarixiga ko'ra juda qadimiy so'zlar bo'lib, ularni tipologik tavsiflash tilshunoslikda ko'pgina masalalarga oydinlik kiritadi.

Ilmiy ish doirasida xitoy va o'zbek tillarida asosiy qarindoshlik terminlarining etimologik tahlilini ko'rib chiqdik. Bu 276 ta standart tildagi terminlardan tashqari sheva va lahjalarida 1324 ta qarindoshlik terminlari mavjud. Ularning asosini 25 ta umumiy termin hosil qiladi. Shundan qon qarindoshlik terminlari sifatida quyidagi 8 ta terminning xitoy va o'zbek tillaridagi chog'ishtirma tahlilga tordik.

“Ota” xitoy tilida 父亲 [fùqīn] termini ikkita iyeroglifdan tarkib tarkib topgan bo'lib: 父[fù] “ota” ma'nosini anglatadi va 亲 [qīn] “yaqin” yoki “aziz” ma'nolarini anglatadi. 父[fù] iyeroglifi soqolli kishini anglatuvchi piktogramma bo'lib, an'anaviy ravishda erkak oqsoqollar va xokimiyat arboblari ifoda etgan. Iyeroglif 3000 yildan ortiq vaqtdan beri ishlatilgan va eng qadimgi xitoy iyerogliflaridan biridir. 亲 (qīn) iyeroglifi ikkiqismdan iborat: “立” [lì] “turmoq” va “口” [kǒu] “og'iz” ma'nosini anglatadi. Ular birgalikda “yaqin”, “qadrli” “aziz” degan ma'nolarni beradi.

Umuman olganda, “父亲” [fùqīn] so'zining etimologiyasi an'anaviy xitoy madaniyatida ota figurasining ahamiyatini va otalar va ularning farzandlari o'rtasidagi yaqin, aziz munosabatlarni aks ettiradi.

Xitoy tilida ota so'zi bir nechta morfemalar bilan ifodalanadi. Ular anglatgan ma'nolarga to'xtalib o'tamiz:

1. 爸爸 [bàba] (口) 父亲 fùqīn ota (so'zlashuv uslubda) ;

¹ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.

2. 翁[wēng] ushbu morfema bir nechta ma'nolarni anglatib kelib, ular quyidagilar: 年老的男子 nianlao de nanzi ; 老头儿 laotouer--Yoshi katta erkak kishi; qariya : 老翁- lǎo wēng- qariya; 渔翁 - yúwēng- keksa baliqchi;

3. (书) 父亲-fùqīn-Ota (kitobiy uslubda) : 仍翁 (你的父亲) - rengweng-sening otang ;

4. 爷[yé] morfemasi bir qancha ma'nolarni anglatib keladi, ular quyidagilar:

(方) 父亲-[fùqīn]- Ota (shevada qo'llaniladi) : 爷娘 (父母) [yéniáng]- ota-ona ;

老子[lǎozǐ]-quyidagi ma'nolarni anglatadi:

(口)父亲-fùqīn-ota (so'zlashuv uslubida qo'llaniladi) ;

1. 男性的自称—erkak kishi o'zini-o'zi atashi :

老子就是不怕, 他还能吃了我 !

Erkak kishi qo'rqmaydi, menga hali uni tishi o'tarmikin !

爹 - diē (口) 父亲-fùqīn-ota (so'zlashuv uslubida qo'llaniladi) : 爹娘- diē niáng-ota-ona ;

爹妈diēmā -ota-ona ;

爹爹—[diēdie] (方) (shevada qo'llaniladi)

父亲-ota;

祖父-buva (ota tomondan)

父— fù

父亲-[fùqīn-ota] 父子-[fùzi] ota va o'g'il ; 老父 -[laofù]- amaki (murojaatda qo'llaniladi)

家族或亲戚中的长辈男子—oilada yoki qarindosh-urug'lar orasida Yoshi katta erkak kishi

祖父- buva 伯父²-amaki (ota tomondan)

父- [fǔ] -katta kishilarga hurmat ma'nosida ishlatiladi, masalan 渔父[yufù] -keksa baliqchi;

Ota termini, o'zbek adabiy tili va uning shevalarida bo'lganidek, boshqa turkiy tillarda ham keng qo'llanuvchi *ata* termini anglatgan ma'nosi bilan farq qilmagani holda fonetik farqi sezilib turadi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy "Devoni"da ata tafsirida *ata*, hatto "o'rxun-enasoy bitiklarida ham ata va uning jaranglashgan varianti ada-ota ma'nosida qo'llanilgan. Jumladan, E.V. Sevortyan turk tilida acha-aba juda qadim zamonlarda ham, har ikkala jins qarindoshlik kompleks manolarini anglata olganligini asos qilib ede-katta aka, boba, ota, amaki, katta opa va katta ayollarga murojaat shaklining mavjudligini takidlab, mazkur terminda har ikkala jinsga aloqador ma'no borligini eslatadi. Lekin boshqa holatda faqat ota-bobo va katta yoshdagi er kishilarga nisbatan ishlatilishi ilmiy adabiyotlardan tan olingan.

Ata terminining umum qarindoshlik va bevosita murojaat ma'nosidagi differensial xususiyati boshqa turkiy tillarda ham kuzatilgan. Jumladan, turkiy tillar asosida tuzilgan lug'atlarda, V.V.Radlovning turkiy tillar va ularning shevalari asosida tuzilgan lug'atida bu xodisani yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur lug'atlarda qayd qilinishicha ata terminining: *atta* , *baba*, *ada*, *atiiy*, *ate*, *tate*, *tata* kabi hilma-hil variantlari mavjud.

²O'sha manba. –页. 405.

O'zbek tili qarindoshlik sistemasida, shuningdek tilining barcha shevalarida *ata* terminining asrlar osha yakka faqat ata-ota ma'nosida ishlatilib kelinishi, uning juda qadim tarixga ega bo'lganligidagina emas, balki uni yaratilgan davridayoq yagona ma'no anglatuvchi termin sifatida yaratilganligidan ham dalolat beruvchi omil deb qarashga ham to'liq asos beradi. Chunki aba, acha kabi terminlar orqali qarindoshlik ma'no munosabtlari bildirilganda jinsiy belgi farq qilinmaganligi ma'lum hodisa.

E.V.Sevortyan o'zining etimologik lug'atida *ata* terminining turkiy tillardagi barcha shakllarini jamlab, ularning olti xil ma'no anglatishini ta'kidlaydi. Va sanalgan ma'nolar orasida ota manosi asosiy va yetakchi o'rinni egallashni ta'kidlaydi.

Turkiy tillar qarindoshlik sistemasida mavjud bo'lgan terminlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, undagi barcha terminlar mazkur tillar asosida yaratilgan,- degan fikrga shubha tug'diradi. Turkiy tillar sistemasida amal qiluvchi bir qator terminlar esa shu tillar bazasida yaratilganligiga shubha tug'dirmaydi. Lekin shu bilan birga bir qator terminlar mavjudki, u terminlarning fonetik xususiyati, morfologik qurilishlariga hamda semantik belgilariga ko'ra yozma manbalarda qayd qilingan va hozirgi turkiy tillarda mavjud bo'lgan terminlardan farq qilib bo'lmaydi. Masalan *ata* termini ham to'g'ri nomi asosida yaratilgan. Mazkur termin odam atoning yaratilishi markazi bo'lgan Afrika va Amerika qit'asidan bir necha ming kilometr uzoqlikda joylashgan Osiyo qit'alariga yetib kelguncha ma'lum fonetik o'zgarishga yuz tutgan. Ya'ni to'g'ri nomi undosh tovush bilan boshlanganligi talaffuzda turkiy tillar nutq organlarida noqulaylik tug'dirgan. So'z boshida undosh tovush bilan boshlangan so'zlarda to'siq kuchli ta'sirda bo'lganligi sababli unga bir unli (a) tovushi orttirilib, *ata* deb talaffuz qilishgan. Bu hodisa oddiy analogiya qonuni asosida amalga oshgan. Agar oyi, opa, amma, oba, ova, amaki, aka, uka, kabi terminlarning unli bilan boshlanishini nazarda tutsak, mazkur analogiya qonunining turkiy tillar sistemasida amalga oshishiga hech qanday to'siq bo'lishiga shubha bo'lmaydi.

Demak ota qarindoshlik termini dastlab turkiy tillar materiali asosida yaratilmagan. Uning semantik va qarindoshlik munosabatlarini ifodalash xususiyatini turkiy tillar materiallari bilan izohlab bo'lmaydi. *Ata* termini uzoq Afrika va amerikada yashovchi qabilalar tiliga manzub bo'lib, qitalararo qabila va urug'larning migratsiyasi orqali o'zlari bilan birga boshqa qitalarga ham tarqaladi.

Ata, doda qarindoshlik terminlarining etimologiyasiga bag'ishlangan maxsus ilmiy adabiyotlarda turli xil fikr-mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, K.G. Menges *ata, dada* terminlarini bolalar tilidan olingan, -deydi. J.Klosson esa uni taqlidiy so'z, -deydi. E.V. Sevortyan³ esa *ata, dada* terminlarini labnor, uygur, turk, ozarbayjon tillariga fors tilidan qabul qilingan bo'lishi kerak, deb tahlil qilgani holda, uning kelib chiqishi va genezisi boshqa qarindoshlik terminlariga o'xshab, noaniq,-deydi. G'. G'ulomovning fikricha *ada* termini *dada* terminidagi (d) tovushining tushishidan hosil bo'lgan. Biroq u, *dada* so'zi qayoqdan paydo bo'lganligi haqida mulohaza bildirmaydi.

Aksincha Xitoy tilida ota ma'nosini anglatuvchi 爸爸[bàba]termini xuddi shu ma'nodagi "baba" turkiy so'zidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi.

Demak *ata, ada, dada* qarindoshlik terminlari to/ ta so'zi asosida yaratilgan. Tarixan to//ta so'zi qarindoshlik ma'nosini anglatgan. Yillar osha u qon-qarindoshlik ma'nosini ifodalay

³ Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на буквы "В", "Г" и "Д"(1980). – наука, 1974. – Т. 3.С. 43-54.

boshlagan. Buning isboti sifatida hozir ham o'zbek tili va uning shevalarida katta so'zi to ta ma'nosi vazifasini o'tayotganligining guvoximiz: bu kishi bizning kattamiz bo'ladilar; kabi iboralarda katta ma'nosida ishlatiladi.

Xulosa. Xitoy va o'zbek tillaridagi qon-qarindoshlik terminlari o'zaro turlicha strukturaga ega bo'lishiga qaramay, ularning shakllanishida umumiylik mavjud. Xususan, patriarxal jamiyat modeli, oilaning ijtimoiy pozitsiyasi va madaniy qadriyatlar ushbu terminologik tizimga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Qiyosiy-etimologik tahlil til o'zgarishlarining tarixiy asoslarini, milliy mentalitetni va ijtimoiy tuzilmani chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida madaniyatlararo tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o'qitish metodikasida amaliy ahamiyat kasb etadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳкамова А. Хитой тилида ақраблик (қариндошлик) номлари. (Ота, она, бобо, буви, номлари мисолида) . – Т.: 2004 й. – Б.80.
2. Мирзахмедова Х. Форс ва ўзбек тилларида термин яшаш принциплари ва муаммолари. Филол. фан. доктори (ДSc)... дисс.2022. – 245б
3. Мирзахмедова М. Инглиз ва ўзбек тилларида Мақолларнинг миллий-маданий ва универсал хусусиятлари // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784. – P. 274 – 279.
4. Каримов А. А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. – Тошкент, 2003. – 121 б.
5. Karimova V. Brief history of researching terms of kinship in uzbek and english languages //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 156-162.
6. Добровольская Е. В. Концептуализация семьи в русской языковой картине мира. Дисс. Канд. Филол. Наук. Томск. – 2005.
7. Дубровская О.Г. Лингвокультурологический аспект сопоставительного исследования русских и английских пословиц об уме и глупости. Дис... докт. филол. наук. – М., 2000. – 260 с.
8. Эгамназаров Х. Термины родства и их функционально-семантические микросистемы в узбекском и английском языках.Филол. фан. номз.. дисс. – Душанбе,2010. – 141б.